

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Boymirzayev Azizbek Karimjanovich

“Maktabgacha-Boshlang'ich ta'lim va Jismoniy tarbiya” kafedrasi o'qituvchisi,
University of business and science

E-mail: azizbekboymirzayev525@gmail.com

Annotatsiya. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy vazifalaridan biri o'quvchi-yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasi¹da yosh avlod tarbiyasi masalasiga to'xtalar ekan: “yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz” degan ushbu murojaati mazmunida o'quvchi-yoshlarni ma'naviy barkamol shaxs sifatida kamol toptirish eng muhim vazifa ekanligi o'z aksini topadi. Ushbu maqola umumta'lim maktablarida o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalalariga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning pedagogik ta'sir omillari hamda qadriyatlar va fazilatlar ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, mafkurafiy-ma'naviy ahloq, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, o'quv-tarbiya jarayoni, vatanparvarlik, pedagogik shart-sharoitlar, pedagogik ta'sir omillari, urf-odatlardan foydalanish, jamiyat taraqqiyoti.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF EDUCATING STUDENTS IN GENERAL SCHOOLS ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES

Boymirzayev Azizbek Karimjanovich

Lecturer of the Department of "Preschool-Primary Education and Physical Training", University of business and science

E-mail: azizbekboymirzayev525@gmail.com

Abstract. One of the main tasks of the reforms being implemented in the education system of the Republic of Uzbekistan is to educate students in the spirit of loyalty to national values. In particular, the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev, in his Address to the Oliy Majlis, touched upon the issue of educating the younger generation: “We will raise young people to be

¹ Xalq so'zi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy Majlisga Murojaatnomasi” 2020 y. 24 yanvar.

independent and logical thinkers, possessing noble qualities based on modern knowledge and experience, national and universal values,” which reflects the fact that the most important task is to educate students as spiritually mature individuals. This article is focused on the issues of educating students in general education schools based on national values, and highlights the pedagogical factors influencing the upbringing of students based on national values, as well as the main tasks of the education of values and qualities.

Keywords: national values, ideological and spiritual ethics, upbringing in the spirit of national values, educational process, patriotism, pedagogical conditions, pedagogical influence factors, use of traditions, social development.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Боймирзаев Азизбек Каримжанович

Преподаватель кафедры «Дошкольное–Начальное образование и Физическое воспитание», Университет Бизнеса и Науки

Э-почта: azizbekboymirzayev525@gmail.com

Аннотация. Одной из основных задач реформ, реализуемых в системе образования Республики Узбекистан, является воспитание учащихся в духе преданности национальным ценностям. В частности, Президент Республики Узбекистан Ш. Мирзиёев в своем Послании Олий Мажлису затронул вопрос воспитания молодого поколения: «Мы воспитаем молодежь самостоятельной и логично мыслящей, обладающей благородными качествами на основе современных знаний и опыта, национальных и общечеловеческих ценностей», что отражает тот факт, что важнейшей задачей является воспитание учащихся как духовно зрелых личностей. В данной статье рассматриваются вопросы воспитания учащихся в общеобразовательных школах на основе национальных ценностей, а также выделяются педагогические факторы, влияющие на воспитание учащихся на основе национальных ценностей, а также основные задачи воспитания ценностей и качеств.

Ключевые слова: национальные ценности, идейно-духовная этика, воспитание в духе национальных ценностей, образовательный процесс, патриотизм, педагогические условия, факторы педагогического воздействия, использование традиций, социальное развитие.

Kirish.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning asosiy maqsadi kelajagimiz bunyodkorlari bo'lgan kelajak avlod yoshlarini vatanga sadoqat, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hisoblanadi. Jahonda yuz berayotgan

o'zgarishlar, globallashuv va axborot asrida turli mafkurafiy-ma'naviy ahloq va xuql-atvorning keng yoyilishi ta'lim oluvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar vositasida tarbiyalash zaruratini qo'ymoqda. Shu bois, tarbiya masalasi davlat siyosati darajasida turuvchi masala bo'lib, olib borilayotgan keng miqyosdagi ta'lim islohotlaridan ko'zda tutilgan asosiy maqsad - yosh avlodni intellektual salohiyatli, milliy qadriyatlarga tayanadigan, yot va buzg'unchi g'oyalarga murosasiz kurashuvchi, yuksak ma'naviyatli shaxs bo'lib yetishini ta'minlash, shuningdek, ularni mazkur xususiyatlar vositasida mustaqil hayotga tayyorlashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi.

Barcha ta'lim muassasalari qatori, umumta'lim maktablari o'quvchilarini milliy qadriyatlar tizimi orqali tarbiyalaydigan asosiy muassasalardan biridir. Shu sababi, umumta'lim maktablarida o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida hayotga tayyorlash hamda sog'lom milliy qadriyatli jamiyatni yaratish masalasi juda muhimdir [2]. Umumta'lim maktablari ta'lim-tarbiya jarayonlarida o'quv predmetlarini o'rgatish qanchalik zarur bo'lsa, o'quvchilarni tarbiyalashda milliy qadriyatlar ruhida kamol toptirish hamda o'quv-tarbiya jarayonida buning turli xil innovatsion ta'sir usullarini ishlab chiqish zarurati mavjud.

Shuningdek, o'quvchilarni o'qitish faqat aqliy ta'lim bilan cheklanib qolmasdan, balki, ularning his-tuyg'ulari, o'zaro munosabatlari va milliy qadriyatlarni singdirishda ta'limning yaxlitligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining barcha davrlari tarixiy taraqqiyotida, millatning, yurtning fahri va iftihori, shu xalq tomonidan bunyod etilgan ma'naviyati, tarixiy-obidalari, san'at va ijodlari, jahon ilm-fan rivojiga hissa qo'shgan olim va mutafakkirlari bilan o'lchanadi. Shuning uchun ham, ana shu moddiy va ma'naviy boyliklarda millat ruhiyatining o'ziga xosligi, turmush tarzi va orzu-umidlari mukammallashadi.

Buyuk tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, sharqona tarbiya, ming yillik qadriyatlar, milliy an'ana va urf-odatlar zahirida milliy tarbiyaning ijtimoiy, ma'naviy, madaniy qadri va ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi. Eng muhimi,

bugungi globallashuv davrida ham u biz uchun o'zining tarixiy ahamiyatini yo'qotgani yo'q, balki, uning tarbiyaviy-ma'naviy qadr-qimmati toboro yuksalib bormoqda. Mustaqillikdan so'ng mamlakatimizda ta'lim oluvchilarni milliy qadriyatlar vositasida tarbiyalash va bu jarayonda pedagogik shart-sharoitlarni yaratish masalalari bo'yicha ko'pgina pedagog olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Manbalar va metodlar.

Pedagogika fanlari doktori, professor O.Musurmanova [3] o'z tadqiqotlarida yosh avlod tarbiyasida ma'naviy – ahloqiy tarbiyaning pedagogik jihatlarini o'rganar ekan, shunday takidlaydi: “ta'lim –tarbiyada ahloqiy ong, vijdon, burch, mas'uliyat, hayo, g'urur kabi insonning fe'l – atvorini ichki boshqarish qurilishiga asoslanadi”. Ahloqning mag'zini tashkil qiluvchi bosh qoidalar insonparvarlik, demokratizm, halol mehnat, o'zaro yordam, do'stlik, hamkorlik, o'zaro hurmat, baynalmilalchilik vatanparvarlik, tabiat va atrof muhitga diqqat-e'tibor, burch hissi hamda kamtarlik ko'zbo'yamachilik va yolg'izlikni inkor etish kabi insoniy sifatlarni o'z tadqiqotlarida ifodalagan.

N.Ortiqov [4] tadqiqotlarida o'quvchi shaxsini axloqiy jihatdan shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyati hamda ularning milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ta'sir omillariga alohida to'xtalib o'tilgan.

M.Quranov [5] tadqiqotlarida o'quvchi yoshlarning ma'naviy-ahloqiy madaniyati xulq-atvorini shakllantirish, umumta'lim tashkilotlarida tarbiyaning pedagogik asoslarini ilmiy jihatdan, ma'naviy-axloqiy tamoyillar, buyuk ajdodlarimizning odob-ahloq me'yorlari va muloqat madaniyati borasida ilmiy qarashlarining pedagogik asoslariga to'xtalib o'tgan.

Q.Nazarov [6] yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni masalasini o'rganar ekan: kundalik hayotda ko'pchilik tomonidan qo'llaniladigan “qadriyat” tushunchasi odamlar uchun zarur ahamiyat kasb etadi. Tabiat va madaniyat buyumlarining inson ehtiyojini qondirishi va uning maqsadlariga xizmat qilishiga asosan ularning foydasi, qimmati nazarda tutiladi. Olim “Qadriyat narsa va

buyumlarning qimmatiga nisbatan qo'llanilmasdan, balki inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab, tartiblar va boshqalarning qadrini, ijtimoiy ahamiyatini ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy kategoriyadir", – deb ta'rif beradi. Xususan, mamlakatimizda yoshlarning ma'naviy kamoloti, ularni milliy ma'naviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalalari har doim muhim vazifa sifatida qaralib kelingan.

Tahlil va natijalar.

O'quvchi-yoshlar tarbiyasi borasida olib borilgan manbalar tahlili asosida umumta'lim maktablarida o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning quyidagi pedagogik ta'sir omillarini inobatga olish zarurati mavjudligi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. O'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning pedagogik ta'sir omillari

Ushbu rasmda o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda ma'naviy qadriyatlar va sharq mutafakkirlarining ahloqiy qarashlari asosida eng muhim sifatlarga etibor qaratish mumkinligiga to'xtalib o'tilgan. Ma'lumki,

mamlakatimizning boy buyuk-tarixiy merosini, bobolarimizning boy ma'naviy-tarbiyaviy merosi, xalqning urf-odati va an'analari asosida yoshlarni tarbiyalashda bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va o'zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlashda xozirgi vaqtda tarbiya sohasidagi islohatlar muhim ahamiyat kasb etadi. A.Rustamovning fikriga ko'ra, barkamol shaxsni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanish bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayoni oldida turgan eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi [7]. Shu boisdan ham mamlakatimizda qadim tarixdan bizga me'ros bo'lib kelayotgan bu betakror an'ana, qadriyat va marosimlar, milliy qadriyatlar va urf-odatlarni o'rganish hamma davrlarda ham olimlar oldida muhim vazifalarni bajarish zaruratini qo'ygan. Xullas, bu yo'nalishda sezilarli vazifalar amalga oshirildi.

Ammo, hali bu borada qilinadigan ishlarning ko'lami ham kengayib bormoqda:

birinchidan, millatimiz tarixi bilan bog'liq bo'lgan urf – odat va an'analarni tiklash, ularni yoshlarimiz ma'naviy boyliklariga aylantirish;

ikkinchidan, millatimiz istiqboli, uning xususiyatlari oldida turgan vazifalarini xal qilishga xizmat qiladigan yangi urf-odatlari va an'alarini shakllantirish;

uchinchidan, milliy xususiyatlarimizga zid bo'lgan, tashqaridan yopirilib kelayotgan urf-odat va an'analardan yoshlarimizni asrash kabilardir.

Milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ham o'quvchilarda inson manfaatlari va qiziqishlarini ko'ra olishi, his qila olishi, milliy-ma'naviy madaniyatning kelib chiqishini bilishi, uning o'zligini anglashi, inson hayotidagi mehnatning o'rnini to'g'ri tushuna olishi, insonparvarlik, mehr-oqibat, iymon, e'tiqod, milliy qadriyatlarni e'zozlash, Vatanga muhabbat, sadoqat, jamiyat, xalq manfaatlarini yuqori qo'yish, ota-ona, qarindosh-urug'lar va boshqalarga muruvvatli, saxovatli bo'lish kabi ma'naviy madaniyatlikning muhim belgilari tarkib topadi.

Bu xususiyat ma'naviy anglashning namoyon bo'lish mezonlari hisoblanadi. Umumta'lim maktab o'quvchisining milliy qadriyatlarini shakllantirishda asosiy masala ularning kognitiv, psixologik va sotsiologik rivojlanishiga mos ravishda o'z hayotida va jamiyatda foyda keltiradigan asosiy qadriyatlarni egallashini

ta'minlashga qaratilgan. Ayni paytda, qadriyatlarni tarbiyalash mas'uliyatni qo'llab-quvvatlash, sevgi va xarakter tarbiyasidan tashqari, tadbirkorlik, asosiy insoniy qadriyatlarga ega bo'lish, o'zi va atrof-muhit bilan tinchlikda bo'lgan odamlarni tarbiyalash va ijtimoiy tartibni himoya qilishni o'z ichiga oladi.

Milliy qadriyatlar ta'lim-tarbiyasining yana bir maqsadi: shaxsning eng yaxshi tomonlarini ochib berish, uning xarakterining har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uning insoniy kamolotga yetishiga ko'maklashish, inson va jamiyatni yomon odatlardan asrash, himoya qilish, yaxshi xulq bilan bezash orqali buning davom etishini ta'minlash [8]. Shu sababli, axloqiy va axloqsiz xatti-harakatlar shaxslarga to'g'ri tarzda berilishi kerak. Shu tariqa ularning yaxshi tomonlari rivojlanib, xarakterlari ijobiy gavdalanadi [9]. Bundan tashqari, qadriyatlar va fazilatlar ta'lim-tarbiyasi inson hayotini mazmunli qilish, ichki muvozanatni saqlash, xarakterni mustahkamlash, axloq va xulq-atvorini yaxshilashga qaratilgan.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda qadriyatlar va fazilatlar ta'lim-tarbiyasi quyidagi vazifalarni bajaradi (1-jadval):

1-jadval

O'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda qadriyatlar va fazilatlar ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifalari

№	ASOSIY VAZIFALAR
1	Shaxsning maqsadi va hayotiy yo'nalishini belgilaydi.
2	Individual va ijtimoiy faoliyatning tamoyillari va umumiy yo'nalishini belgilaydi.
3	Shaxsning hatti-harakatlarini baholashga yordam beradi.
4	Shaxsga boshqalar bilan munosabatga kirishish, ijtimoiylashuv imkonini beradi.
5	Shaxsga to'g'ri va noto'g'ri, axloqli va axloqsizlik nima ekanligini farqlashni o'rgatadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega jarayon hisoblanib, ushbu qadriyatlarni o'qitish usullari bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq.

Xulosa.

Xulosa o'rnida aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz yoshlarini tarbiyalash masalasiga to'xtalib: 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi [10] da: "biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim" deb ta'kidlaganlari ham bejiz emas. Shu sababli, umumta'lim maktablarida o'quvchilarni tarbiyalash jarayoni jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Sog'lom bola sog'lom avlod orzusi ajdodlarimizdan bizga o'tib, kelayotgan qon-qonimizga singib ketgan azaliy intilishdir. Agar ota-bobolarimizning turmush va tafakkur tarziga nazar solsak, ular insonning nasl-nasabi, yetti pushtining tozaligi, avlodining sog'lomligiga juda katta e'tibor berganini ko'ramiz. Biz shunday muhim hayotiy qadriyatlarni jamiyatimizda yanada chuqur qaror toptirish, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi ishlarimizni yanada yuksak bosqichga ko'tarishga harakat qilmoqdamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xalq so'zi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy Majlisga Murojaatnomasi". 2020 yil. 24 yanvar.
2. Otamurotov S. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. 2003. B. 219.
3. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: dis.: p.f.d. – T., 1993. – 364 b.
4. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o'quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. - T., 2000. 305 b.
5. Quranov M.. "O'zbekiston umumta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy pedagogik asoslari": p.f.d....diss - T.: 1998 y.

6. Nazarov Q. G'oyalar falsafasi. Tajribaviy qo'llanma. -Toshkent: Akademiya, 2011. - B.84.
7. Rustamov A. Adiblar odobidan adablar. T- "Ma'naviyat". 2003. B. 144.
8. Anvarova D.M. O'smirlar ma'naviyati shakllanishi va rivojlanishining psixologik xususiyatlari: Psix.fan.nom. ...dis. avtoref. – T.: 2011. – 26 b.
9. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o'quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. - T., 2000. 305 b.
10. Xalq so'zi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy Majlisga Murojaatnomasi" 2020 y. 30 dekabr №-255 son.